

ASRLAR OSHA SO‘ZLAGAN TARIX - TEMUR QO‘RG‘ONI

Alisher Mamajonov

*O‘zbekiston Respublikasi Z.M.Bobur
nomidagi Andijon davlat universiteti
“Jahon tarixi” kafedrasi professori*

Beknazar Kudaynazarov

*Qirg‘iziston Respublikasi
Jalolobod mamlekettik universitetinin
Tarix fakulteti III-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qirg‘iziston Respublikasi Jalolobod viloyati Bozorqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan va xalq orasida “Amir Temur qo‘rg‘oni” nomi bilan mashhur bo‘lgan tarixiy hududning geografik joylashuvi, kelib chiqishi va tarixiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu hududning Markaziy Osiyodagi harbiy-strategik o‘rni, savdo yo‘llari bilan bog‘liqligi hamda zamonaviy turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, qo‘rg‘on, Bozorqo‘rg‘on, Jalolobod viloyati, Farg‘ona vodiysi, tarixiy yodgorlik, harbiy-strategik hudud, madaniy meros.

“Markaziy Osiyo hududi qadimdan sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib, bu yerda ko‘plab tarixiy inshootlar, qal‘alar va qo‘rg‘onlar barpo etilgan. Ushbu inshootlar nafaqat harbiy mudofaa vositasi, balki iqtisodiy va madaniy hayotning muhim markazlari sifatida ham xizmat qilgan” [1, B. 1].

Qirg‘iziston Respublikasining Jalolobod viloyati Bozorqo‘rg‘on tumanida joylashgan “Amir Temur qo‘rg‘oni” deb ataluvchi hudud ana shunday tarixiy obyektlardan biri sifatida e‘tiborga molikdir. Qirg‘iziston Respublikasining, Jalolobod viloyati, Bozorqo‘rg‘on tumani nafaqat o‘zining go‘zal tabiati, balki qadimiy tarixiy yodgorliklari bilan ham mashhur. Maqoladagi “Amir Temur qo‘rg‘oni”¹ (ba‘zi manbalarda “Temur quti” yoki “Temur qal‘asi”) haqida ilmiy va ommabop ma‘lumotlarni tizimlashtirish mumkin bo‘ladi. “Amir Temur qo‘rg‘oni” Bozorqo‘rg‘on tumanining tog‘li hududlarida, asosan Arslonbob va Oq-unkur majmualariga yaqin hududda joylashgan deb hisoblanadi. Mahalliy toponimikada bu nom Sohibqironning tog‘ tizmalari orasidagi strategik manzilgo‘hlari yoki dam olish joylari bilan bog‘lanadi.

¹ “Amir Temur qo‘rg‘oni” - Qirg‘izistonning Jalolobod viloyati Bozorqo‘rg‘on tumani, xususan, Shidir, Qo‘tqor va Qo‘rg‘onjar qishloqlari hududida joylashgan qadimiy tepalik va tarixiy maskan. Bu joy xalq orasida Amir Temur nomi bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan manzil sifatida tilga olinadi.

“Movarounnahr hukmdori Sohibqiron Amir Temur 1370-yildan Iroq, Kavkaz o‘lkalariga, Afg‘oniston, Hindiston, Misr, Shom, Rum davlatlariga yurishlar qildi. Temurning Kichik Osiyodagi urushi ham g‘alaba bilan tugadi. Umrining so‘ngida, ya’ni 1404-yilda Temur 200 ming kishilik qo‘shin bilan Xitoyga yurish boshladi. Ammo 1405-yil 18-fevralda u O‘tror shahrida to‘satdan vafot etdi. Shu bilan Xitoy safari ham to‘xtatildi” [2, B. 27].

Amir Temur va uning harbiy yurishlari xususida to‘xtalishimiz boisi shundaki, Bozorqo‘rg‘on tumanidagi Shidir, Qo‘tqor, Qo‘rg‘onjar qishloqlari o‘rtasida “Amir Temur qo‘rg‘oni” degan tarixiy joy shu paytgacha saqlanib hamda buyuk sarkarda nomi bilan ataladi. Shuning uchun ham maqolaga “Asrlar osha so‘zlagan tarix - Temur qo‘rg‘oni” - deb nom berdik.

Biz tarixiy manbalarni imkon qadar o‘rganishga, Amir Temurning bu yerlardan o‘tgan yoki o‘tmaganini aniqlashga harakat qildik. Ammo bu haqda aniq ma’lumot topa olmadik.

Amir Temurning Farg‘ona vodiysi va unga tutash tog‘li hududlarga yurishlari tarixda keng yoritilgan. Bu qo‘rg‘onning tarixiy qimmatini quyidagi nuqtalarda ko‘rinishini asos qilib oldik:

Strategik makon: Temur o‘z yurishlari davomida baland tog‘li hududlarni kuzatuv punkti va mudofaa qo‘rg‘oni sifatida ishlatgan. Bozorqo‘rg‘on hududi Farg‘ona vodiysiga kirish va chiqishni nazorat qilish uchun qulay joy bo‘lgan.

Xalq rivoyatlari: Mahalliy aholi orasidagi afsonalar Temurning bu yerda qo‘shin to‘plagan, otlarini boqqani va mashhur “Arslonbob” ziyoratgohiga tashrif buyurgani haqida so‘zlaydi.

Arxeologik qatlam: Bu hududlardagi qo‘rg‘on qoldiqlari o‘rta asrlar me’morchiligi va mudofaa tizimini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilganligini tushinib yetdik.

Amir Temur davri va Sohibqironning Farg‘ona vodiysi hamda hozirgi Qirg‘iziston hududlari bilan bog‘liq faoliyatini o‘rganish uchun o‘zbek tilidagi manbalarni bir necha guruhga bo‘lish mumkinligini tushunib yetdik, tadqiqot davomida “Amir Temur qo‘rg‘oni” kabi mahalliy obyektlarning tarixiy ildizlarini Temur davrida yoki undan sal keyin yozilgan, voqealarning eng ishonchli xronikasi hisoblangan Sharafiddin Ali Yazdiy, “Zafarnoma”[3, B.191]. Bu asar Sohibqiron hayoti haqidagi eng mukammal manbadir. Unda Temurning Farg‘ona, Yettisuv va Mo‘g‘uliston (hozirgi Qirg‘iziston hududlarini ham o‘z ichiga olgan) yo‘nalishidagi yurishlari, qo‘shinlarning to‘xtash joylari va qurilgan istehkomlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Nizomiddin Shomiy, “Zafarnoma”: Ali Yazdiyning asariga asos bo‘lgan, Temurning ko‘rsatmasi bilan u tirikligida yozila boshlangan ilk rasmiy tarix.

“Temur tuzuklari”: Temurning davlat boshqaruvi va harbiy taktikasiga oid qarashlari bayon etilgan. Bu asar qo‘rg‘on va qal’alarning strategik ahamiyatini

tushunish uchun muhim. Ibn Arabshoh, “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur”: Temurga nisbatan tanqidiy ruhda bo‘lsa-da, juda ko‘p geografik va tarixiy detallarni saqlab qolgan aynan mana shu manbalar yordamida asoslash mumkin.

“Amir Temur umrining so‘nggi yillari Sharqqa yurish qilgan paytida shu yerlarda bo‘lgan bo‘lsa kerak, degan fikrga kelasan. Olti asrdan beri o‘sha qishloqlar o‘rtasidagi 7,2 gektar maydonni egallagan qal‘asimon joy “Amir Temur qo‘rg‘oni” deb bejiz atalib kelinmayotgandir?

Tashriflaringdan juda mamnunman, qo‘rg‘onni ko‘rgani kelgan ekansizlar, o‘zim birga yurib tanishtiray, - deya O‘rozbek ota hassasiga tayanib, oqsab bo‘lsa ham biz bilan bab-barobar tepalik tomon yo‘l oldi. O‘rmlab bo‘lsa ham, terak bo‘yidan baland tepalik ustiga chiqib oldik. Tepalik usti ancha keng, bu yerdagi yo‘lda piyoda va otda bemaolol yurish mumkin. Ilk bor bu qo‘rg‘onni Xitoy devoriga qiyosladik. Ammo asrlar mobaynida bu devor qarovsizlikdan nurab, tuproqtepaga aylanib qolganga o‘xshaydi.

Piramida shakliga monand qo‘rg‘on devori ustidagi so‘qmoqdan yurib, shimol tomondagi eng baland joyga boramiz. Bu yer ancha keng, ochiq maydondagi o‘yingohga o‘xshab ko‘rinadi. Tepalik ortidagi uylardan biz turgan joy taxminan ikki-uch terak bo‘yi baland. Atrofga nazar tashlaymiz. Janubdagi uylar, qishloqlar, bog‘lar, hatto 15 chaqirim naridagi Bozorqo‘rg‘on qishlog‘i yaqqol ko‘zga tashlanadi. G‘arb tomondagi Shaydon va Mosi qishloqlari xuddi kaftingizda turgandek ko‘rinadi. Qisqasi, to‘rt tomonni o‘tkir ko‘z yoki durbin bilan bemaolol kuzatish imkoni bor ekan.

Shimol tomondagi baland tepalikning ichki qismida biroz pastroqda yana bir tepalik bo‘lib, u yer ham kichikroq o‘yingohni eslatadi. Qo‘rg‘onning ichki qismining to‘rtidan uch bo‘lagi yer holida, to‘rt tomoni esa ta‘kidlab o‘tganimizdek bir tepalik bo‘yidan balandroq piramida shaklidagi devor deyish mumkin. Biz qo‘rg‘on devori ustidagi so‘qmoq bilan aylanib chiqdik. Bundan o‘n yillarcha avval janubiy qismidagi devor tepalikning o‘n metrcha joyini surib, qo‘rg‘on ichkarisidagi 7-8 gektarcha tekis maydonni ekin maydoniga qo‘shib yuborishmoqchi bo‘lishadi. Arxeologiya yodgorliklariga katta e‘tibor bilan qaralgan sho‘rolar davrida ham qo‘rg‘onni yo‘q bo‘lib ketishiga oz qolganini aytib o‘tish kerak deb o‘z so‘zini ta‘kidlaydi” [4, B. 2].

Qirg‘izistonning Jalolobod viloyatida joylashgan Bozorqo‘rg‘on tumani tarixiy nuqtayi nazardan juda qiziqarli hudud hisoblanadi. Amir Temur davri va qo‘rg‘onning bog‘liqligi masalasida quyidagi ilmiy va tarixiy faktlarga tayanish mumkin:

1. Strategik joylashuv va “Qo‘rg‘on” atamasi Bozorqo‘rg‘on nomining o‘zi ikki komponentdan iborat: “Bozor” va “Qo‘rg‘on”. Bu hudud qadimdan Farg‘ona vodiysini tog‘li hududlar bilan bog‘lovchi muhim savdo yo‘li ustida joylashgan.

Qo‘rg‘onning vazifasi: Amir Temur saltanati davrida Farg‘ona vodiysining sharqiy va shimoliy chegaralarini qo‘riqlash, tog‘dan tushadigan xavflarning oldini

olish uchun mana shunday strategik nuqtalarda mudofaa istehkomlari (qo‘rg‘onlar) barpo etilgan.

Davr bog‘liqligi: Bozorqo‘rg‘on hududidagi eski qal‘a qoldiqlari arxeologik jihatdan o‘rganilganda, ularning aksariyati aynan Temuriylar davrida faol bo‘lgan harbiy-mudofaa tizimiga mos kelishi kuzatiladi.

2. Amir Temurning Farg‘ona vodiysiga yurishlari tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yuqorida aytganimizdek, “Zafarnoma” asarida Sohibqironning Mo‘g‘ulistonga (sharqiy hududlarga) qilgan yurishlari davomida Farg‘ona vodiysining chekka hududlarida to‘xtab o‘tgani, qo‘shin uchun qarorgohlar va istehkomlar qurilgani haqida ma‘lumotlar bor. Bozorqo‘rg‘on va uning atrofidagi hududlar (masalan, Arslonbob yo‘nalishi) Temur qo‘shinlari uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. “Qo‘rg‘on nafaqat mudofaa, balki savdo karvonlarini nazorat qilish va soliq yig‘ish maskani ham bo‘lgan, shu bilan birga savdo aloqalarida ushbu hududlardagi siyosiy vaziyat katta o‘rin tutardi” [5, B. 214].

Xulosa qilib aytganda, Bozorqo‘rg‘on tumanida joylashgan “Amir Temur qo‘rg‘oni” hududi Markaziy Osiyoning muhim tarixiy va geografik nuqtalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mazkur hudud turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini ham beradi. “Qo‘rg‘on” atamasi turkiy xalqlarda qadimdan qal‘a yoki mudofaa inshooti ma‘nosini anglatadi. Bozorqo‘rg‘on nomining o‘zi ham “bozorli qal‘a” ma‘nosini bildiradi.

“Amir Temur qo‘rg‘oni” nomi esa ushbu hududning XIV asrda buyuk sarkarda va davlat arbobi bo‘lgan Amir Temur davri bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalarda bu yerda Temuriylar davrida harbiy nuqta yoki kuzatuv qo‘rg‘oni bo‘lganligi haqida taxminlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Марказий Осиё - жаҳон цивилизациялари чорраҳасида <https://uza.uz/ru/posts/markaziy-osiye-zha-on-tsivilizatsiyalari-chorra-asida-25-09-2020> (Murojaat etilgan sana: 15.04.2026).
2. Ф. Жумабоев. Ўзбекистон халқлари тарихи. Ўқув қўлланма - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992. 160 бет.
3. Шарафиддин Ал Яздий. Зафарнома. - Тошкент: “Шарқ”, 1997.
4. Мўйдинжон Абдумажидов. Бозорқўрғонда - “Амир Темур қўрғони”. <https://oqbura.org/?p=7626> 30.12.2025. (Murojaat etilgan sana: 15.04.2026).
5. Ўктам Мавлонов. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. - Тошкент: “Akademiya”, 2008. 432 бет.